

## ERKIN VOHIDOV HAYOT VA IJODI HAMDA SHE'RLARINING MAZMUN-MOHİYATI

*Dildora Yo'ldosheva Zokirjon qizi*

*Marg'ilon shahar Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek adabiyotning yorqin namoyondalarida biri bo'lgan taniqli shoir, dramaturg, adabiy tarjimon va davlat arbobi Erkin Vohidovning hayoti yo'li, ijodi, she'rlari, she'rlarining mazmuni mohiyati, O'zbek adabiyotiga qo'shgan ulkan hissalar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Erkin Vohidov, shoir, she'riyat, tush she'ri, firoq she'ri, adabiyot, ma'rifat.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрен жизненный путь, творчество, стихи, суть содержания стихотворений, суть содержания известного поэта, драматурга, литературного переводчика и государственного деятеля Эркина Вахидова, который является одним из ярких проявлений Узбекская литература, его вклад в узбекскую литературу Приводятся сведения о его большом вкладе.

**Ключевые слова:** Эркин Вахидов, поэт, поэзия, поэма-мечта, напутствие, литература, просвещение.

**Annotation:** In this article, the life path, creativity, poems, the essence of the content of the poems, the essence of the poems of the famous poet, dramatist, literary translator and statesman Erkin Vahidov, who is one of the bright manifestations of Uzbek literature, his contribution to Uzbek literature Information about his great contributions is given.

**Key words:** Erkin Vahidov, poet, poetry, dream poem, parting poem, literature, enlightenment.

Erkin Vohidov Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida 1936-yilning 28-dekabrda qishloq o'qituvchilari oilasida dunyoga kelgan. Otasi Cho'yanboy Vohidov, onasi Roziyaxon davrning obro-e'tiborli, ma'rifatli, faol kishilari edilar. Afsus, ular uzoq yashamadilar. Avval Ikkinchi jahon urushida qatnashib, og'ir yarador bo'lib qaytgan ota, so'ng ona dunyodan o'tdi. Bo'lg'isi shoirning opasi va ukasi ham go'dakligicha vafot etgan edi. Ikki qisqa umrning yolg'iz yodgori bo'lib Erkin Vohidov toshkentlik tog'asi qo'lida qoldi. Uning o'spirinlik, yoshlik yillari Toshkentda o'tdi. Erkin ulg'aygan xonadon ma'rifatga, san'atga, adabiyotga tashna edi, bu xonadonda tez-tez shoir va xonandalar ishtirokida suhbatlar bo'lib turardi. Erkin Vohidovdagi nafosatga, she'riyatga mehr va mayl shu xonadonda, ana shu davralarda shakillandi. Erkin juda erta qo'lga qalam oldi. 7-sinfda o'qib yurganida "Mushtum" jurnalida birinchi she'ri bosildi. Maktabni tugatgach, Toshkent Davlat universiteti

filologiya fakultetiga kirib o'qidi. Universitet ta'limi shoirning ijodiy taqdirida chuqur iz qoldirdi. Birinchi she'rlar kitobi "Tong nafasi" talabalik yillarida yaratildi. Erkin Vohidov publitsist, dramaturg, dostonnavis, tarjimon sifatida barakali ijod qilgan bo'lsa-da, avvalo, u lirik shoir sifatida adabiyotga kirib kelgan. Shoirning ijodi bahs-munozaralar ichida kechdi. Shoir o'z qo'lidagi qurol-she'r, uning tabiati, shoirning el-yurt oldidagi burch-vazifasi xususida ko'p o'yladi, she'r va shoir haqidagi qarashlarni bayon etdi. U bular hususida so'z ochganda har doim ijod mashaqatlarini, shoir bo'lish onson emasligini eslatadi. Uningcha, shoirlik o'z ona yurtiga, xalqiga, inson zotiga bo'lgan fidoyi mexrning samarasidir. Erkin Vohidov dastlab xayot, go'zallik, yoshlik, muhabbat kuychisi bo'lib maydonga chiqdi. Taqdir in'om etgan hayot, saodat, yoshlik, muhabbat sururini, hayotdan rizolikni to'lib-toshib kuyladi. Xalqimiz erishgan yutuqlar, uning shonli tarixi, qo'lga kiritgan g'alabalari to'g'risida faxr-iftixorga to'la satrlar bitdi. Jumladan, "Yoshligim" g'azalida yoshlik sururidan jo'shib yozadi:

Yoshligim, kel, kuyga to'lgan

Qalbim oltin sozi bo'l

Men qo'shib aytay to'lib

Bir lag'za jo'r ovozi bo'l.

XX-asr 50-yillar oxiri 60-yillarga kelib vaziyat o'zgara boshlagan, inson shaxsiga hurmat, qalbiga e'tibor birmuncha oshdi, kishining xilma-xil kechinmalari, jumladan, an'anaviy she'riy shakil, ayniqsa, g'azalning jonlanishiga olib keladi. Tabiiyki, bu jarayon o'sha kezlari osonlikcha silliq kechgani yo'q. Abdulla Oripov yozganiday, "Mumtoz g'azaliyotimizning oltin eshiklari abadiy bekildi, deya karomat qilishayotganda yosh avlod orasidan birinchilardan bo'lib Erkin Vohidov aruzning tabarruk ostonasidan pospon yanglig' paydo bo'ldi". Ba'zi munnaqitlar ishqiy kechinmalarni kuylash, ko'hna she'riy – aruzga murojaat qilishni zamondan uzoqlashish deb ataydilar. Erkin Vohidov "Yoshlik devori" kitobining "Debocha" sida shunday qarashlar bilan bahsga kirishadi:

Istadim sayr aylamoqni Men g'azal bostonida.

Kulmangiz, ne bor senga deb Mir Alisher yonida.

She'riyat dunyosi keng, Gulzori ko'p, bostoni ko'p,

Har ko'ngil arzini aytur Neki bor imkonida.

Ey munnaqid, sen g'azalni

Ko'hna deb kamsitmagil,

Sevgi ham Odam Atodin

Qolgan inson qonida.

Shu tariqa shoir inson qonidagi azaliy, tabiiy tuyg'u – sevgini kuylagan qadimiy g'azal shaklini himoya qiladi. She'rda g'azal shunchaki sheri shakl ma'nosida emas, muhabbat, boqiy insoniy tuyg'ular ramizi tarizida ham qo'llangan:

Barcha shodlik senga bo'lsin,

Bor sitam, zorlik merga.  
Barcha dildorlik senga-yu,  
Barcha hushtorlik menga.  
Bu johonning rohatin ol,  
Bor azobin menga ber.  
Senga bo'sin barcha orom,  
Barcha bedorlik menga.

Shoirning ona zamin qismati haqida alamli o'ylari "Sirdaryo o'lani" she'rida o'ziga hos tarzda ifodalangan. Bu she'r xalq o'lanlari ruhi, ohanglari bitilgan: bir tomonda ona daryoning go'zal ta'rif-tavsifi, ikkinchi tomonda shoirning daryoning hozirgi holati, achchiq qismatidan bezovtaligi, tashvish-zorlari. Shoir nazarida Sirdaryo kohna Jayhun (Amudaryo) bilan birga ona vodiy hayoti, bori, quvonchi, alami, zori; yurt uchun ham tomir, ham yurak... Shoir g'urur bilan:

Sen borsanki, keng vahada hayot bor,  
Demak, yurting labida bol, nabot bor...  
Sen patasan, olma, anor va nursan,  
O'zbek uchun surursan ham g'urursan,  
O'zni yerga tomchi-tomchi berursan  
Daryo emas, xalq timsoli erursan,  
Oqib turgin, qurib qolma, onajon

singari misralar yozadi. Shoirni mana shu ta'rif-tavsifga sig'mas azim daryoning, chindan ham xalq timsoli deyishga loyiq ona daryoning bugungi qismati qattiq tashvishga, iztirobga soldi. "Nega bukun bemadorsan, haloksan?" deya uni alamli savolga tutadi. "Arslon o'ynatuvchi"-ijtimoiy pafosi jihatidan XX-asr 70-yillar o'zbek milliy she'riyatining jiddiy yutig'i. Faqat bugina emas, unda qaramlik dunyosining shavqatsizligi-titikchilik, kundalik hayot tashvishlari tirik mavjudotni, odam zotini ne ko'ylarga solishi ramziy tarzda bugun dramasi, keskinligi bilan ko'rsatiladi. She'rda qaramlarni bir-birlari bilan bog'lab qo'ygan ko'zga ko'rinmas kishanlar ildizi ochib tashlanadi. Uni o'qib, alam iztirob bilan qaramga olingan hodisa, ya'ni to'qaylar podishohi arislonni charsillab yonib turgan olov halqa ichidan sakrab o'tishga majbur qilgan, sher zotini masharaboz qo'lga berib, gumroh tomoshabin-olomon uchun ermak-tomoshaga aylantirgan kuch nima dikan savolga o'zingiz javob topasiz.

XX-asr 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlarida yuz bergan jamiyatimiz hayoti, ma'naviyatidagi o'zgarish, yangilanish, odamlar ongidagi evrilishlar Erkin Vohidov she'riyatida, xususan, "Yaxshidir achchiq haqiqat" kitobida o'z aksini topdi. Shoirning bu davr ijodida eng xarakterli xususiyat unda chin ma'nodagi ruhiy erkinlikning namoyon bo'lishi hisoblanadi.

Erkin Vohidov she'rlari haqida.

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa she'ri haqida.

She'rd a o'zbek millati vakillari uchun hazrat Navoiyni o'qish zarurati borasida so'z boradi. Darhaqiqat, hazrat Navoiy asarlari bizga iymon-e'tiqod, or-nomus, vafosadoqat, hayo-yu iffat, ishq-u oshiqlikdan saboq beradi. Modomiki, ajdodlari ma'rifatga oshno el farzandlari ulardan bebahra ekan, bu katta kulfat. Shu bois hazrat Navoiy hikmatlaridan ta'lim olmoq bizning burchimizdir.

Tush she'ri haqida

She'rd a tush bilan o'ng - odamning arosatdagi mudroq, lanj holati ustida gap boradi: lirik qahramon takror-takror tush ko'radi, tushida mudrab yurgan el ichida yuradi, ular bilan o'zi ham mudrab asta qadam sudraydi. Darhaqiqat, inson bolasi uchun bu og'ir ruhiy qiynoq. Koshkiydi, bu shunchaki tush, birgina odamning arosatdagi ruhiy qiynoqlari bo'lsa! Aslida bu butun xalq boshiga tushgan kulfat! Bu mustabid tuzum sharoitida g'aflat bosgan bandalar orasida bo'lgan shaxsning musibati, fojiasi. Shoir yaratganga iltijo qilib, bunday mudhish kechaning-og'ir qiynoqning oxiri tezroq kelishini iltijo qiladi.

Firoq she'ri haqida.

Firoq mavzusida bitilgan bu she'rd a shoir dastlab uch holat haqida fikr yuritadi: sevishganlarning bir-biridan judoligi, yorning tashlab ketishi, javobsiz muhabbat. Bularning hech biri chinakam firoq emas -, deydi shoir, - zero, bu dardlarning barchasiga davo bor. Ammo chinakam firoq - bu kim bilandir hayotingni bog'lab, bir umr birga yashasang-u, biroq qalban yaqin bo'lmasang... Bu dardga davo yo'q. Negaki chinakam olislik jismlarning emas, qalblarning bir-biridan olisligidir...

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov hozirgi o'zbek she'riyating zabardast vakillaridan biridir. Uning sharq mumtoz adabiyoti an'analari izidan borib, zamondoshlari ma'naviy dunyosini ochib beruvchi g'azallari, zo'r insoniylik ruhi bilan yo'g'rilgan talay she'rlari, urush fojialari haqida bahs etuvchi "Nido", hayot jumboqlari, inson qismati xususidagi falsafiy mushohadalari bilan yo'g'rilgan "Ruhlar isyoni", "Istambul fojiasi" asarlari, tomoshabinlarni xushnud etgan "Oltin devori" komediyasi, shuningdek, I.Gyote, S.Yesenin, A.Blok, M.Svetlov, Tvardovskiy, R.Xamzatovdan qilgan tarjimalari, ayniqsa, "Eron taronalari" bilan "Faust" tajribasi adabiyotimizda, ma'naviy hayotimizda ulkan voqea bo'ldi.

"Men ijodiy mehnatni faol jamoat ishlari bilan qo'shib olib borishdek sharafli vazifa yukini doimo yelkamda his qilaman. Odamlarga faqat she'ring emas, o'zing kerakligini sezish-bu katta baxt. Shuning ham jamoat mehnatidan hech qachon o'zimi ob qochgan emasman. Qaynoq xayot ichida yashab, ishlab o'rganganman", - deb yozadi shoir.

**Xulosa:** Darhaqiqat, u badiiy ijodni faol jamoatchilik ishlari bilan qo'shib olib boradi. Yoshlar nashriyatida bosh muharrir, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida direktor, "Yoshlik" jurnalida bosh muharrir bo'lib ishlagan. Shoirning ijtimoiy faoliyati doirasi Respublika Oliy Kengashi va oliy Majlisiga

deputat bo'lib saylangan, Oliy Kengashning oshkoralik masalalari qo'mitasi, Oliy Majlisning Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasiga raislik qilgan kezlari ayniqsa kengaydi. Bu yillarda atoqli shoir davlat va jamoat arbobi sifatida ham taniladi. Shoir "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi, "O'zbekiston qahramoni" unvoniga sazovar bo'ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vohidov E. "Tarjimai holim" maqolasi. Toshkent. "Yoshlik" jurnali. 10-son. 1992.
2. Vohidov E. "Qalb sadoqati" .5-jild. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2018.
3. Vohidov E. "Dostonlar". Toshkent. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976.
4. Vohidov E. "Muhabbat". Toshkent. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976.
5. Shukur Qurbon. Toshkent. "Ustoz saboqlari". "Sharq" nashriyoti. 2016.